O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

2025-yil 16-aprel | 187-2-0-Q/25 | Buxoro viloyati hokimligi

Buxoro-agro” EIZ direksiyasi hududidagi elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang‘ich narxi miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-iyuldagi PQ-3843-sonli “Buxoro-agro erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi PF-5600-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq hamda investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirishni ta’minlash, shu asosda yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti Buxoro bo‘limi tomonidan “Buxoro-agro” EIZ direksiyasi hududidagi qishloq xo‘jaligi ekin yer maydonlarining normativ qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotnomalari inobatga olinsin.

2. “Buxoro-agro” EIZ direksiyasi hududidagi yer maydonlarida bog‘dorchilik va uzumchilik xo‘jaliklarini tashkil etish uchun elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkalarining boshlang‘ich narxi Buxoro tumanida 1 gektar 14 747,74 ming so‘m, Romitan tumanida 1 gektar 15 680,65 ming so‘m, Peshko‘ tumanida 1 gektar 27 368,79 ming so‘m, Kogon tumanida 1 gektar 6 596,03 ming so‘m, Jondor tumanida 1 gektar 19 162.78 ming so‘m etib belgilansin.

3. Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (O.Sadikov)ga, “Buxoro-agro” EIZ direksiyasi (F.Tilloev)ga, Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (J.Igamov)ga viloyat teleradiokompaniyasi (O.Shabanov)ga, “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov) bilan birgalikda mazkur

qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali tadbirkorlik subyektlari va aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilsin.

4. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning buxoro.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining o‘rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i R.Asadov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**